



**Dilshod RO'ZIQULOV,**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD, DSc mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail: druzikulov27@mail.ru*

*O'zJOKU professori, filologiya fanlari doktori M. Xudoyqulov taqrizi asosida*

## APPROACHES AND FORMATS OF MILITARY WEB PUBLICATIONS IN COVERING ARMED CONFLICTS

Annotation

This article analyzes the methods, approaches, and formats used by military and defense-themed web publications in covering armed conflicts. It examines the distinctive features of military journalism, the challenges of objectivity and subjectivity in presenting information, as well as the impact of modern technologies on the process of information dissemination. The study was conducted by examining the content of major military websites and blogs, their analytical depth, and their influence on the readership. The article presents important conclusions regarding the role of military publications in the information landscape and their impact on public consciousness.

**Key words:** Military journalism, armed conflicts, web publications, information warfare, approaches, formats, objectivity, information security.

## ПОДХОДЫ И ФОРМАТЫ ВОЕННЫХ ВЕБ-ИЗДАНИЙ В ОСВЕЩЕНИИ ВООРУЖЕННЫХ КОНФЛИКТОВ

Аннотация

В данной статье анализируются методы освещения вооруженных конфликтов военными и оборонными веб-изданиями, их подходы и форматы. В ней исследуются особенности военной журналистики, проблемы объективности и субъективности в представлении информации, а также влияние современных технологий на процесс распространения информации. Исследование проводилось путем изучения контента основных военных веб-сайтов и блогов, их аналитической глубины и влияния на читательскую аудиторию. В статье представлены важные выводы о месте военных изданий в информационном пространстве и их роли в общественном сознании.

**Ключевые слова:** Военная журналистика, вооруженные конфликты, веб-издания, информационные войны, подходы, форматы, объективность, информационная безопасность.

## HARBIY VEB-NASHRLARNING QUROLLO TO'QNASHUVLARNI YORITISHDAGI YONDASHUVLARI VA FORMATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada harbiy va mudofaa mavzusidagi veb-nashrlarning qurolli to'qnashuvlarni yoritish usullarini, ularning yondashuvlari va formatlarini tahlil qilingan. Unda harbiy jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, axborotni taqdim etishdagi obyektivlik va subyektivlik muammolari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning axborot tarqatish jarayoniga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot asosiy harbiy veb-saytlar va bloglarning kontentini, ularning tahliliy chuqurligini va o'quvchi auditoriyasiga ta'sirini o'rganish orqali amalga oshirildi. Maqolada harbiy nashrlarning axborot makonidagi o'rni va ularning jamiyat ongidagi rolga oid muhim xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Harbiy jurnalistika, qurolli to'qnashuvlar, veb-nashrlar, axborot urushlari, yondashuvlar, formatlar, obyektivlik, axborot xavfsizligi.

**Kirish.** Bugungi globalashgan va axborot asrida qurolli to'qnashuvlar haqidagi xabarlar dunyoning istalgan nuqtasida bir zumda tarqaladi. Bu jarayonda harbiy veb-nashrlar muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat yangiliklarni yetkazadi, balki voqealarga chuqur tahliliy yondashuvlarni ham taqdim etadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Dunyo miqyosidagi hozirgi o'ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta'minlash yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda" [1]. Shu sababli ularning qurolli to'qnashuvlarni yoritishdagi yondashuvlari, formatlari va axborotni taqdim etish usullarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola, harbiy nashrlarning axborot makonidagi pozitsiyasini, ular qo'llayotgan texnologiyalarni va bu orqali jamiyat ongidagi xavfsizlikka oid tasavvurlarni qanday shakllantirayotganini aniqlashga qaratilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Harbiy jurnalistika mavzusiga oid tadqiqotlar asosan harbiy axborotning siyosiy

manipulyatsiyadagi o'rmini, harbiy muxbirlarning ishidagi xavf-xatarlarni va media tashviqotining xususiyatlarini o'rganadi. Ba'zi olimlar, masalan, Manchester (AQSh) universiteti professori Philip Taylor "munozarali axborot urushlari" (information warfare) tushunchasini rivojlantirib [2], harbiy jurnalistikaning nafaqat axborot yetkazish, balki axborotni manipulyatsiya qilish vositasi ekanligini ta'kidlagan.

Amerikalik olim Robert Spilkerning ishlari esa harbiy yangiliklarni tarqatishning texnologik jihatlariga qaratilgan [3]. U veb-nashrlarning an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan ustunligini, ya'ni tezlik va interaktivlikni qayd etgan. Shu bilan birga, harbiy axborotda obyektivlik va subyektivlik o'rtasidagi chegaralarni o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki aksariyat harbiy nashrlar o'z mamlakatlarining siyosiy va strategik manfaatlarini himoya qilishga moyil bo'ladi.

Harbiy jurnalistikaning tarixi, ilk ko'rinishlari va rivojlanish bosqichlari haqida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Alijon Safarovning ilmiy izlanishlari [4], o'quv

qo'llanma va turkum maqolalari ilm-fan tarmog'ida ilk marotaba maxsus o'rganilgan ish sifatida diqqatga sazovordir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda asosiy harbiy veb-nashrlarning (masalan, Defense News, Breaking Defense, RUSI, Stratfor) kontentini tahlil qilish uchun kontent tahlili (content analysis) metodidan foydalanildi. Xususan, 2024–2025-yillardagi yirik qurolli to'qnashuvlar yuzasidan chop etilgan maqolalar tanlab olinib, ularning:

Axborotni taqdim etish formati (yangilik, tahliliy maqola, hisobot, intervyu).

Yondashuv (xolislik, tarafkashlik, milliy manfaatlar ustunligi).

Vizual kontentdan foydalanish darajasi (fotolar, videolar, infografika).

Auditoriya bilan aloqa (fikrlar, muhokamalar) kabi jihatlari o'rganildi.

Tadqiqotda shuningdek, qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli ham qo'llanilib, turli mamlakatlarga mansub nashrlarning bir xil voqeani qanday yoritgani solishtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy veb-nashrlar qurolli to'qnashuvlarni yoritishda bir necha asosiy yondashuvlarni qo'llaydi:

Texnik-taktik yondashuv asosida ko'pchilik nashrlar harbiy operatsiyalarning texnik jihatlarga, qo'llanilgan qurollarning samaradorligiga va taktikalarning o'ziga xosliklariga e'tibor qaratadi. Bu ma'lumotlar ko'proq mutaxassis auditoriyaga mo'ljallangan.

Siyosiy-strategik yondashuvda ayrim nashrlar voqeani kengroq siyosiy kontekstda tahlil qiladi, davlatlarning strategik manfaatlarini va harbiy to'qnashuvlarning global siyosatga ta'sirini yoritadi. Bu format odatda uzun va chuqur tahliliy maqolalarda namoyon bo'ladi.

Milliy yondashuv orqali aksariyat harbiy nashrlar o'z mamlakatining armiyasini ijobiy tomondan ko'rsatishga intiladi, ularning g'alabalari va jasoratlarini alohida ta'kidlaydi. Bu holatda axborot subyektivlik bilan boyitiladi.

Formatlar bo'yicha, yangiliklar qisqa va tezkor, tahliliy maqolalar esa uzoq va batafsil bo'ladi. Ko'plab nashrlar interfaol kontent, jumladan, 3D modellar va interaktiv xaritalardan foydalanib [5], voqealarni yanada tushunarli qilishga harakat qiladi.

Jurnalistika jahon maydonida o'z tamoyillari va funksiyalarini o'zgartirib, global muammolarni hal qilishning asosiy tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Jamiyatdagi axloqiy yo'nalishlarni birlashtirish uchun turli etnoslar, madaniyatlar, siyosiy kuchlar, din vakillari o'rtasida ommaviy axborot vositalari maydonchalari va faol muloqotlar zarur. Shu asosda jahon harakatlarida imkon qadar kelishuvga, fuqarolik jamiyati institutlari va hokimiyat tuzilmalari o'rtasida o'zaro tushunishga erishish mumkin. So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jangovar harakatlar hududida jurnalistlar soni sezilarli darajada oshganini ko'rish mumkin.

Harbiy jurnalistikaning to'qnashuv zonasidan xabar berish tendensiyasining o'sishi, auditoriyaning tanqidiy munosabati harbiy jurnalistikaning yangi bosqichi boshlanganining yaqqol ifodasidir. XX asrning birinchi yarmida murakkab siyosiy ta'qiblar amalga oshirilib, mustamlakachi davlatning ofatlaridan xalqimiz ko'p aziyat chekdi. Qo'shni qozoq xalqi tez-tez qo'zg'olonlar va g'alayonlarni boshdan kechirib, to'qnashuvlar paytida murojaat mazmunidagi harbiy ma'lumotlar mamlakat va qishloq hududlariga havodek zarur edi. Ba'zi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, g'alayonlar paytida yashirin gazetalar mamlakat ichida tarqalgan, ammo hukumat organlari tomonidan yo'q qilingan. Azaldan yuksak jangavor ruh bilan ot ustida kun kechirgan xalqni harbiy hayotdan ajratib qaray

olmaymiz. "Sovet Ittifoqi tashkil topgan davrda qozoq harbiylari kasbiy jihatdan shakllangan bo'lsa-da, ko'plab qiyinchiliklarni boshdan kechirdi. Stalinchasiyosiy ta'qiblarga duchor bo'ldi, millatning sarasi bo'lgan ziyolilar qamoqqa olindi va tuhmatga uchradi, qurolli kuchlar va uning sohaviiy nashrlari xalqdan yashirin holda tashkil etildi, ish faoliyatiga oshkora e'lon qilinmaydigan qurolli qarorlar orqali rahbarlik qilindi, ko'rsatmalar berildi. Biroq shunga qaramay, harbiy jurnalistika o'z muhiti va o'quvchilarini topib, kasbiy darajada rivojlandi. Shuning uchun sovet davrida harbiy jurnalistikani o'rganish mumkin emas edi.

1991-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng ilgari harbiy sir deb hisoblangan bu sohani tarixini o'rganish asta-sekin jadallasha boshladi. Biroq bu sohani sinchkovlik bilan o'rgangan jiddiy ilmiy ishlar deyarli yo'q. Jahon tarixi turli darajadagi urushlar va to'qnashuvlar xronologiyasidan iborat. Ushbu shakldagi ma'lumotlar to'plami esa harbiy jurnalistikaning tendensiyalarini shakllantiradi. Harbiy jurnalistlarning kasbiy standarti tendensiyalar yangilanishi bilan o'zgarib, yangi elementlar va taktikalar bilan to'ldiriladi. Eng muhimi OAV negizida harbiy materiallarni tayyorlashga yo'l ochish kerak. Qozoq tilida so'zlashuvchi auditoriya tarjima qilingan mahsulotlarni iste'mol qilishi tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi va atamalarining qo'llanilish doirasini toraytiradi. Jahon siyosiy vaziyatlarini sifatli tahlil qila oladigan qozoq tilida so'zlashuvchi auditoriyaga endilikda jahon mojarolari hududidan tayyorlangan media mahsulotlar kerak [6]. Harbiy jurnalistika, mojaralar hududidan xabar berish masalasi jurnalistikaning taniqli nazariyotchilari va kichik mediaetika mutaxassislari o'rtasida ham, muhim ilmiy tadqiqotlarda ham muhokama qilinadi. Bu masalaga bo'lgan qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi jurnalistika rivojlangan bo'lsa-da, mojaralar hududidan xabar berish orqada qolib ketdi. Masalan, yaqin Sharqda so'nggi yillarda sodir bo'layotgan mojarolardan o'zbek tilidagi reportajning yo'qligi asosiy kamchiliklar sirasidan.

XXI asrda jahon urushi ikki maydonda: mojaralar hududi va axborot maydonida kechadi. Mamlakatda yetishib chiqqan ilk siyosiy-harbiy qozoq jurnalist Nazgul Kenjetay "Mediameetup" loyihasining onlayn seminarida harbiy jurnalistda yuzaga keladigan dilemmalarga yechim taqdim etadi [7]. Biroq taklif qilingan yechimlar bizda bu darajadagi ziddiyatli vaziyat mavjud bo'lmagani uchun ayricha ta'sir ko'rsatadi. Bu tushunchaga qarab, milliy jurnalistikaning jahon jurnalistikasiga hamohang bo'lishi kerakligini anglaymiz. Bizning harbiy jurnalistikamizda mojaralar hududidan xabar berish bilan bog'liq quyidagi muammolar mavjud: moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi; qozoq tilida so'zlashuvchi auditoriyaning ommaviy ulushi kamligi; mojaralar hududidagi turli to'siqlar, cheklovlar; jurnalist hayoti xavfsizligining himoyalanganligi.

Agar ushbu to'siqlar bartaraf etilsa, media-marketingda bir nechta innovatsion yo'nalishlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini e'lon qilib, oyoqqa turganidan buyon harbiy-vatanparvarlik ruhidagi gazeta-jurnallar, teleradiodasturlar yaratish yo'lga qo'yilib, muntazam ravishda chop etib kelinmoqda.

So'nggi yillarda mojaralar zonasidan axborot tarqatish amaliyoti auditoriyaning asosiy talabiga aylandi. Har bir ommaviy axborot vositasi o'z nuqtayi nazarini aniqlashtirib, unga mos ravishda ma'lumot tarqatishiga odatlangan odamlar rasmiy jurnalistlar va mustaqil muxbirlarning ma'lumotlarini o'z ongida tahlil qilish uchun ikkala tomonning media mahsulotlaridan baravar foydalanadilar. Ushbu tendensiyaga muvofiq, harbiy jurnalistikaning professional standarti aniq o'rganilishi va tasdiqlanishi kerak.

Hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan harbiy ommaviy axborot vositalarining asosiy xususiyati shundaki, bu yerda PR ko'pincha targ'ibotga bog'liq bo'ladi. Targ'ibot esa keng auditoriyaga mo'ljallangan noma'lum obyekt haqidagi hikoyadir. Bunday holatda aniq yo'nalish bo'lmaydi. Jahon ommaviy axborot vositalarida harbiy jurnalistika auditoriyasi juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va mojaro hududidan ma'lumot oluvchilar soni ham ortib bormoqda. Urush harakatlari jahon siyosiy-iqtisodiy vaziyatiga daxldorligi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgani bois OAV harbiy mavzularda eshittirishlar sonini oshirmoqda [8]. Materiallar ko'paygani sayin urush psixologiyasi chuqur o'rganilib, siyosiy mavzularda material tayyorlay oladigan jurnalistlar tanlanmoqda. Harbiy jurnalistika OAV uchun nafaqat imij shakllantiruvchi obyekt, balki mablag' topish uchun asos bo'la oladigan yo'nalish hisoblanadi. Urush xronikasi jahon tarixining ajralmas qismidir. Bugungi yangilikni yozish ertangi kunning tarixini yozish bilan barobar. Shuning uchun harbiy jurnalistikaning ko'lamini kengaytirish

uchun ekstremal mintaqadan eshittirishlarni o'rganish, dunyodagi so'nggi yangiliklarni diqqat bilan kuzatib borish va ekstremal jurnalistikaning terminologik asoslarini rivojlantirish kerak.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, harbiy veb-nashrlar qurolli to'qnashuvlarni yoritishda diversifikatsiyalashgan yondashuv va formatlarni qo'llamoqda. Ular nafaqat axborotni yetkazib beruvchi, balki jamiyatning harbiy-strategik tushunchalarini shakllantiruvchi muhim vositalardir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ular ko'pincha obyektivlikdan ko'ra o'z mamlakatlarining manfaatlariga xizmat qiladi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi takliflarni berish mumkin. Jumladan, harbiy veb-nashrlarning ijtimoiy tarmoqlar ("Twitter", "Telegram")dagi faoliyatini tahlil qilish hamda qurolli to'qnashuvlarni yoritishdagi etika va axloqiy me'yorlar masalasini chuqurroq o'rganish zarur. Zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalarining harbiy axborotni yaratish va tarqatishdagi rolini o'rganish maqsadga muvofiq.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi // <https://president.uz/oz/lists/view/6968>
2. Taylor P.M. War and the Media: Reporting Conflict 200 Years of Battle. Manchester University Press. 2003.
3. Spilker R.G. Digital Media and Military Communication. Routledge. 2018.
4. Safarov A. O'zbekistonda harbiy jurnalistikaning shakllanish va rivojlanish tamoyillari (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – T., 2021.
5. Seib P. The Global War on Terrorism and the Media. Palgrave Macmillan. 2009.
6. Defense News rasmiy veb-sayti. <https://www.defensenews.com/>
7. Breaking Defense rasmiy veb-sayti. <https://breakingdefense.com/>
8. Royal United Services Institute (RUSI) rasmiy veb-sayti. <https://rusi.org/>